

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.S.Shodiyeva	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini	424
M.G.Ismoilov	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
N.X.Raxmankulova	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati	433
M.Saminjonov	
Rasmiy-siyosiy qasamlar	439
A.A.Hakimov	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi	444
Sh.T.Abbosova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati	448
A.A.Parmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahmiyati.....	451
S.M.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy- pedagogik ahmiyati	456
S.M.Ro'zimurodov	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni.....	460
M.A.Мирзарахимов	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili	467
J.Xamroqulov	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
N.O.Yunusaliyeva	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
N.I.Suleymanova	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahmiyati	481
Y.V.Lutfullina	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahmiyati.....	486
J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish	490
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faoliik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida	497
S.A.Sharipova	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida	500
К.И.Марайимова	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
B.B.Djalalov, K.P.Uzakov	
Ta'limming uzlusizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida	512
M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov	
Ayrim geteroatomli aldegidlarni Inbr ₃ /Et _{3n} /Et ₂ O katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
A.Sh.Raximov	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiyl tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

O'SMIRLARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI

ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У ПОДРОСТКОВ

PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF FAMILISTIC COMPETENCE IN ADOLESCENTS

Ismoilov Muhammadjasur G'anijon o'g'li¹

¹Farg'onan davlat universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'smirlarni familistik kompetensiyasini rivojlantirishga, o'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analarini, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishiga, o'smirlarning hayot tarzini yaxshilash, pedagogik, psixologik xususiyatlari xaqida fikr berilgan.

Аннотация

В данной статье дается мнение о формировании семейной компетентности подростков, проявлении интереса к традициям и ценностям своего народа и других народов, совершенствовании образа жизни подростков, педагогических и психологических характеристик.

Abstract

In this article, an opinion is given on the formation of familialistic competence of adolescents, the manifestation of interest in the traditions and values of their own people and other peoples, the improvement of the lifestyle of adolescents, pedagogical and psychological characteristics.

Kalit so'zlar: oila, o'smir, familistika, kompetensiya, sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, familialistik kompetensiya, or-nomus, mehr-oqibatlilik.

Ключевые слова: семья, подросток, семейный, компетентность, верность, храбрость, смелость, преданность делу, честность, правдивость, нуждаемость, добросовестность, семейная компетентность, честь, доброта.

Key words: family, teenager, familialistic, competence, loyalty, bravery, courage, dedication, honesty, truthfulness, neediness, conscientiousness, familialistic competence, honor, kindness

KIRISH

Mamlakatimizni yuksalish davridagi ta'limg-tarbiya masalalari davlat taraqiyotining asosiy yo'nalishlariga aylanganini takidlamoqchimiz. Xalq ta'liming hozirgi kundagi dolzarb masalalaridan biri o'qish davrida o'smirlarning tarbiyasi va ularning oilaviy hayotga tayyorlash juda muhim sanaladi shuning uchun farzand tarbiyasida oila-mahalla-maktabning ro'li muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, bolaning bilim darajasini hisobga olish muhimdir. Shuning uchun o'smirlarda ona Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat, mardlik, jasorat, fidoyilik, halollik, rostgo'ylik, hojatbarorlik, vijdonlilik, vazminlik, yigitlik g'ururi, or-nomus, mehr-oqibatlilik kabi fazilatlar, tadbirdorlik va oilaparvarlik malakalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosi bilan ko'plab pedagog va psixolog olimlarimiz ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Jumladan, A.Munavvarov, G.Shoumarov, V.Karimova, O.Musurmonova, M.Inomova, N.Sog'inov, M.Xolmatova, D.Xoliqov, I.Yuldashev, X.Tojiboyeva va boshqalarning ilmiy – tadqiqot ishlari e'tiborga molik pedagogika fanlari doktori M.Mahmudova "Xalq pedagogikasi va oila tarbiysi" monografiyasida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, maqola va tezislarida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik jihatlarini ilmiy va amaliy tomonidan asoslab berishga harakat qilgan Faylasuf olima M.Xolmatova o'smirlarni oilaga tayyorlashning axloqiy, jismoniy, estetik, ma'naviy, ruhiy va jinsiy tomonlarini hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini sharqona urf-odatlarimizdan foydalanishning o'ziga xos tomonlarini falsafiy jihatdan o'rgangan. A.Munavvarov oila pedagogikasiga oid tadqiqot ishlarida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onalarning saviyasi, turmush tarzi, xarakteri, kasbiy faoliyatları bilan bog'liqligini ishonarli faktlar asosida tahlil qilgan.

Biroq o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari yaxlit bir butun tizim sifatida tadqiq etilmagan. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida o'smirlarda familistik kompetensiyasining rivojlantirishni, nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish dolzarbligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'smirlarning familistik kompetensiyasining rivojlantirish uchun oila-mahalla-maktab kollabarativligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Familistik kompetensiya – shaxsda oila ijtimoiy instituti haqidagi majmuaviy bilimlarning tarkib topganligi bilan belgilanadi. Bu esa shaxsning qadriyatlar ustuvorligiga asoslangan holda oilada sog'lom muhitning shakllanishi, oilada o'zaro murakkab va shaxsiy munosabatlarni unikal tarzda tashkil etilishi, shuningdek, oilaga tegishli bo'lgan barcha o'ziga xos jihatlarni yuksak darajada asrab-avaylash hamda uni o'sib kelayotgan avlodlarga to'g'ri taqdim etilishidir.

"Kompetensiya" tushunchasi pedagog olim B.X.Xodjayevning fikricha "subyektning maqsadni qo'yish, unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishiga tayyorligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarini yecha oladigan shaxsiy qobiliyatidir".

Pedagog olimlardan N.Yu.Shleykov, S.A.Anisyutinlarning tadqiqotlarida familistik kompetensiya fenomeni – oilaviy qadriyatlarning ustuvorligi, sog'lom tur mush tarzi va oilaviy munosabatlarni mustaqil tashkil qilish ko'nikmasi sifatida ifodalangan. O'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda ular ongiga xalqimizning azaliy an'analar, udumlari, tili, dini, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, sabr-toqat,adolat, ma'rifat, insonparvarlik, mehnatsevarlik tuyg'ularini har bir yosh ongiga singdirish talab etiladi. Yoshlar ongiga mazkur yuksak axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni singdirishda ularning qiziqishi, intilishi, orzu-o'ylari, qobilyati, malaka va ko'nikmalari muhim ro'l o'ynaydi. Ayni shu xususiyatlar o'smirlarga ham xosdir.

Olimlarimizning ta'kidlashicha, oilaviy tasavvurlarning yoshlar ongida shakllanishi, jamiyatdagi asosiy o'zgarishlar, qadriyatlar, rasm-rusumlar, an'analar, oiladagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi tarbiyaviy ishlarni yanada samaraliroq qiladi. Muallifning fikricha, o'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlash samaradorligi qator psixologik-pedagogik qoidalarga amal qilishni taqozo etadi: O'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda ularning yosh, shaxsiy, jinsiy xususiyatlarini inobatga olib, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ularga individual munosabatda bo'lish; o'smirlarni pedagogik-psixologik diagnostika qilish asosida, ular bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish lozim. Bunda psixodiagnostika dasturini yaratish; yoshlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar, uning yoshi, dunyoqarashi, qobilyati va qiziqishiga mosligini inobatga olish; o'smirlar bilan olib boriladigan tabiyaviy tadbirning hayotiyligi, qiziqlarligi, o'smirlarning hayotiy pozitsiyasiga mosligi; yoshlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirni uyuşhtirishda oila-mahalla-oliy ta'lim muassasasi hamkorligini ta'minlash; o'smirlarni mustaqil hayotga tayyorlashda ularga xos bo'lgan «Men» pozitsiyasiga tayanish; tanlanadigan tarbiyaviy ish shakl va metodlarining zamonaviyligi, qiziqlarligi, ma'lumotlar qamrovining hayotiyligiga erishish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlarda familistik kompetensiyanı rivojlatirish quydagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- oilaviy hayotning ko'p funksionalli va ko'p qirraligini tushunish;
- o'smirlarning oila, oilaviy hayotning umuminsoniy qadriyati va shaxsiy ahamiyatini anglashi;

- o'smirlarni oilaviy qadriyatlar bilan bog'liq holda tarbiyalash uchun axloqiy me'yorlarga (ota-onal tuyg'ularini hurmat qilish odob-axloq, va boshqalar) va kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lish.

- o'z oilaviy hayotini qurish va har xil turdag'i oilalar bilan ishlash texnologiyalari asosida o'smirlarning oilalari bilan konstruktiv hamkorlikni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarga ega bo'lish;

- oilaviy munosabatlar uy-ro'zg'or ko'nikmalari, madaniyati, qarindoshlar va yaqin odamlar bilan muloqot qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- oilaning faoliyati, yaratilishi, o'smirlarning oilaviy hayotga qiziqishini rivojlatirish

- o'smirlarning familistik kompetensiyasini rivojlatirish uchun o'qituvchilardan quyidagilar talab qilinadi:

- oilaviy hayot muammolarini samarali hal qilish, o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ota-onalarning psixologik-pedagogik ta'llimi bo'yicha modellarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha subyektiv-shaxsiy tajriba;

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish uchun oila fazilatlarini doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlanishiga tayyorlik, oilaviy munosabatlarni o'z-o'zini takomillashtirish, yoshlarning ota-onalari bilan ijtimoiy sheriklik sohasida o'z-o'zini tarbiyalash.

Yoshlarda ta'lif va tarbiya jarayoni bolaning eng yaqin muhitida, ya'ni oilada amalga oshiriladi, ota-onalar, katta yoshdagi qarindoshlari, bolalar, ularning do'stlari o'smir o'sadigan axborot maydonini yaratadilar. Bu orqali u jamiyatga kiradi. Bolalarga hurmat va insoniy munosabatda bo'lgan talabchanlikdan mohirona foydalanish tamoyili. Asosiysi, oilada bolalarning hayoti va xatti-harakatlarining oqilona tartibini, ularning boshqa oila a'zolari bilan munosabatlarining oqilona shakllarini o'rnatish. Jarayon ta'lif - odatlar, ko'nikmalar, xarakter xususiyatlarini shakllantirish - bilimlarni uzatish orqali o'tadi. Yoshlarni kun tartibiga, shu jumladan mehnatga, dam olish bilan birgalikda o'qishga va ish joyini qanday tartibda saqlash kerakligi, ijobjiy xulq-atvorning tegishli odatlarini shakllantirish. Oilada bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirishning navbatdagi muhim mezoni – mehnat muhitini yaratish va o'smirlarda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Shaxsnинг rivojlanishida oila katta ahamiyatga ega. O'ziga yaqin odamlardan iborat kichik guruh hayotida bevosita va doimiy ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo'lgan bolalar ko'p narsani yo'qotadilar. Bu ayniqsa oiladan tashqarida - mehribonlik uylari va boshqa turdag'i muassasalarda yashovchi yosh bolalarda seziladi. Bunday bolalarning shaxsiyatining rivojlanishi ko'pincha oilada tarbiyalangan bolalarga qaraganda boshqacha tarzda davom etadi. Bu bolalarning aqliy va ijtimoiy rivojlanishi ba'zan kechikib, hissiy rivojlanishi sekinlashadi. Xuddi shu narsa kattalar bilan sodir bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, ko'p odamlarning xatti-harakatlariga boshqa odamlarning mavjudligi ta'sir qiladi. Ko'p odamlar yolg'iz qolgandan ko'ra, boshqa odamlar oldida o'zlarini boshqacha tutishadi. Bundan tashqari, agar biror kishi hozir bo'lganlarning mehribon, munosabatini his qilsa, u ko'pincha bunday harakatlar uchun ma'lum bir rag'batga ega bo'lib, bu uning atrofidagi odamlarning roziligini keltirib chiqaradi va unga eng yaxshi nurda ko'rinishiga yordam beradi. Agar biror kishi do'stona munosabatni his qilsa, unda u turli yo'llar bilan namoyon bo'ladigan qarshilikka ega. Yaxshi tarbiyalangan odam bu norozilikni ongli harakat bilan yengadi. Do'stona munosabatlar hukmronlik qiladigan kichik guruhda jamoa shaxsga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu ayniqsa, ma'naviy qadriyatlar, xulq-atvor me'yor va namunalari, kishilar o'rtasidagi munosabatlar uslubining shakllanishida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zining xususiyatlariga ko'ra, oila kichik guruh sifatida o'z a'zolari uchun hissiy ehtiyojlar uchun sharoit yaratadi, bu esa odamga o'zining jamiyatga tegishliligini his qilishiga yordam beradi, xavfsizlik va tinchlik tuyg'usini oshiradi, boshqa odamlarga yordam berish va qo'llab-quvvatlash istagini uyg'otadi..

Oila jamiyat hayoti va faoliyatida ulkan ro'l o'ynaydi. Oilaning funksiyalarini jamiyat maqsadlarini amalga oshirish nuqtai nazaridan ham, jamiyat oldidagi majburiyatlarini bajarish nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish mumkin. Oila mikrotuzilma sifatida muhim ijtimoiy ehtiyojlarni qondiradi va muhim ijtimoiy funksiyalarini bajaradi. Oila o'zining reproduktiv funksiyasi tufayli inson hayotining davomi manbai hisoblanadi. Bu dastlab insonning shaxsiyatini shakllantiradigan ijtimoiy guruhdir. Oila jamiyatning ijodiy va ishlab chiqarish kuchlarini oshirishga yordam beradi. Oila o'zining yangi a'zolarini jamiyatga tanishtiradi, ularga til, urf-odat va urf-odatlarni, ushbu jamiyatda majburiy bo'lgan asosiy xulq-atvor namunalarini o'tkazadi, insonni jamiyatning ma'naviy qadriyatları olamiga kiritadi, uning xatti-harakatlarini nazorat qiladi. Oilaning ijtimoiy funksiyalari nafaqat bolalarga, balki turmush o'rtoqlarga nisbatan ham namoyon bo'ladi, chunki nikoh jamiyat hayotida katta rol o'ynaydigan jarayondir. Oilaning asosiy vazifalaridan biri uning barcha a'zolarining shaxsiyatini rivojlanishiga uchun sharoit yaratishdir. Oila shaxsnинг turli ehtiyojlarini qondiradi. Bolalarning tug'ilishi nafaqat o'z turini davom ettirish ongidan quvonch keltiradi, balki kelajakka ishonch bilan qarashga imkon beradi. Oilada odamlar bir-biriga g'amxo'rlik qilishadi. Shuningdek, oila insonning turli ehtiyojlarini qondiradi. Insonning oilaviy hayotida sevgi va o'zaro tushunish, tan olish, hurmat va xavfsizlik hissi eng aniq namoyon bo'ladi. Biroq, ularning ehtiyojlarini qondirish oilaning muayyan funksiyalarini bajarish bilan bog'liq. Afsuski, oila har doim ham o'z vazifalarini bajarmaydi. Bunday hollarda oilaning ijtimoiy roli muammosi paydo bo'ladi. O'z a'zolarini xavfsizlik, zarur yashash sharoitlari va o'zaro yordam bilan ta'minlashga qodir bo'lmagan oilalar, agar oilada ma'lum qadriyatlar noto'g'ri taqdim etilgan bo'lsa, o'z vazifalarini bajarmaydi. Oilaning har bir inson hayotidagi o'rnini hisobga olgan holda, uning psixologik vazifasini ham qayd etish lozim, chunki shaxsnинг jamiyat uchun qadrli bo'lgan barcha fazilatlari oilada shakllanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Prezidentimiz tashabbuslari bilan hukumatimiz tomonidan ijtimoiy hayotimizdagi yaratilgan sharoitlar bois amalga oshirilayotgan ishlар ayniqsa, diqqatga sazovor. Sh.M.Mirziyoyevning

2017-yil "Oliy majlisga murojaatnomasi"da "Yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalish masalasiga alohida e'tibor berish va bu borada "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan, bo'layotgan voqeahodisalarga erkin munosabat bildiradigan ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan muloqotning sir asrorlarini o'rgangan yoshlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib kelinmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning rivoji o'smirlarning ma'nnaviy qiyofasiga, shaxsiy barkamolligiga ham ko'p jihatdan bog'liq. Bu vazifalarni amalga oshirish insoniy o'zaro munosabatlarda demokratik tamoyillaming teran tafakkur etishni taqozo etadi. Insonlar o'rtafigi ijtimoiy munosabatlar Sharqda o'ziga xos va harbir millat psixologiyasiga mos holda qaror topgan. Respublikamizning yangi bosqichgao'tishi, o'ztaraqqiyot yo'lidan borayotgan O'zbekistonda yangicha fikrlaydigan, bo'layotgan voqeahodisalarga erkin munosabat bildiradigan ijodiy va tanqidiy mushohada yuritadigan muloqotning sir asrorlarini o'rgangan insonlarni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoxda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarda kelajak avlodni teran fikrli, aqilli, mustaqillik ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor berilmoxda. Ushbu muammoni hal etish ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, mustaqil fikrlovchi raqobatbardosh yuqori malakali mutaxassislarga bugungi kunda ehtiyoj katta

XULOSA

Xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, Uzlusiz ma'nnaviy tarbiya konsepsiysi o'smir yoshdag'i o'g'il bolalarda familistik kompetensiyaning shakllantirishning xuquqiy asosi bo'lib ushbu konsepsiyada ta'llim va tarbiya jarayoni bolaning ota-onalar, katta yoshdag'i qarindoshlari, bolalar, ularning do'stlari o'smir o'sadigan axborot maydonini yaratadilar. O'smir yoshdag'i o'g'il bolalarda ta'llim va tarbiya jarayoni bolaning eng yaqin muhitida, yani oilada amalga oshiriladi, ota-onalar, katta yoshdag'i qarindoshlari, bolalar, ularning do'stlari o'smir o'sadigan axborot maydonini yaratadilar. Bu orqali u jamiyatga kiradi. Bolalarga hurmat va insoniy munosabatda bo'lgan talabchanlikdan mohirona foydalanish tamoyili. Asosiysi, oilada bolalarning hayoti va xatti-harakatlarining oqilona tartibini, ularning boshqa oila a'zolari bilan munosabatlarining oqilona shakllarini o'rnatish. Oilada bag'rikenglik munosabatlarini shakllantirishning navbatdagi muhim mezoni - mehnat muhitini yaratish va bolalarda mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish ko'rsatildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'llim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [PF-5847 08.10.2019](#). Manba: www.gov.uz
- Abdusamatova Sh.S. Burxanova M.B. (2020). Ko'p farzandli ota-onalarni oiladagi munosabatlarining xususiyatlari. Oriental Art and Culture
- Karimova V.M., Hayitov O.E., Djalalova S.M. Boshqaruv psixologiyasi. O'quv qo'llanma. -T.:«Fan vatemnologiya» nashriyoti, 2008. – 208 b.
- Ismoilov, S. D. (2022). OILA VA QADRIYAT. Academic research in educational sciences, 3(1), 998-1003. 5. Dilshodovich, I. S. (2022). UMUM O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'G'IL BOLALARINI OILAGA TAYORLASHNING PSIXOLOGIK ILMUY ASOSLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSİYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 775-779.
- Ismoilov, S. (2023). O'SMIR YOSHDAGI O'G'IL BOLALARNI XAYOTGA TAYYORLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING TAMOYILLARI. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 227-230.
- Dilshodovich, I. S. (2023). JISMONIY TARBIYA O 'QUVCHILARINI SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(30), 731-734.
- Dilshodovich, I. S. (2023). TALABA-QIZLARNI DARSALAR DAVOMIDA JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH METODIKASI. PEDAGOG, 6(6), 389-393.
- Dilshodovich, I. S. (2023). TALABALARDA FAMILISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(29), 515-519.
- Sherzod, I. (2022). THE CONTENT OF THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS FOR THE FORMATION OF FAMILISTIC COMPETENCE IN STUDENTS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 8, 40-46.
- Ismoilov, S. D. (2022). OILA VA QADRIYAT. Academic research in educational sciences, 3(1), 998-1003.
- Dilshodovich, I. S. (2021). Ways To Increase the Effectiveness of Physical Education Classes in Secondary Schools. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2, 142-143.
- Ismoilov, S. (2021). Developing A Valued Attitude Towards the Family in Students as A Topical Pedagogical Problem. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 3, 91-93.